

Yusufjon Nabijanov Inomiddin o'g'li,
 University of Business and Science universiteti
 "Til va adabiyot ta'limi" kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD
 E-mail: yusufxonabijanov@gmail.com
 ORCID raqami: <https://orcid.org/0009-0006-5055-0117>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20259179>

ONA TILI TA'LIMIDA EDRAWMAX DASTURIY TA'MINOTI YORDAMIDA GRAFIK ORGANAYZERLAR YARATISH VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI DIDAKTIK AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada grafik organayzerlarni yaratishga mo'ljallangan EdrawMax dasturiy ta'minotining ta'lim jarayonida qo'llanilishi va uning didaktik imkoniyatlari yoritilgan. Muallif EdrawMax dasturining asosiy xususiyatlari, interfeysi va funksional imkoniyatlari haqida batafsil ma'lumot beradi. Maqolada ushbu dasturdan 6- va 7-sinf ona tili darsligi mashqlarini bajarishda foydalanish bo'yicha amaliy namunalar keltirilgan: jadval ko'rinishidagi organayzer, doira shaklidagi diagramma hamda ro'yxat ko'rinishidagi grafik organayzerlar hosil qilish jarayoni ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, EdrawMax dasturi o'quvchi-talabalarda ijodkorlik, mustaqil ta'lim olish va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik dasturiy vosita sifatida xizmat qila oladi.

Kalit so'zlar: grafik organayzer, EdrawMax, pedagogik dasturiy vosita, ko'rgazmalilik, ta'lim texnologiyalari, diagramma, didaktik vosita, ona tili ta'limi, raqamli kompetensiya, mustaqil ta'lim.

СОЗДАНИЕ ГРАФИЧЕСКИХ ОРГАНАЙЗЕРОВ С ПОМОЩЬЮ ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ EDRAWMAX В ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ И ИХ ДИДАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. В данной статье рассматривается применение программного обеспечения EdrawMax, предназначенного для создания графических органайзеров, в учебном процессе, а также его дидактический потенциал. Автор подробно описывает основные характеристики, интерфейс и функциональные возможности EdrawMax 11.5.0. В статье приведены практические примеры использования данной программы при выполнении заданий из учебников по родному языку для 6-го и 7-го классов: показан процесс создания органайзеров в виде таблиц, круговых диаграмм и списков. Результаты исследования свидетельствуют о том, что EdrawMax является эффективным педагогическим программным средством, способствующим развитию творческих способностей учащихся, навыков самостоятельного обучения и цифровых компетенций.

Ключевые слова: графический органайзер, EdrawMax, педагогическое программное средство, наглядность, образовательные технологии, диаграмма, дидактическое средство, обучение родному языку, цифровая компетенция, самостоятельное обучение.

CREATING GRAPHIC ORGANIZERS USING EDRAWMAX SOFTWARE IN NATIVE LANGUAGE TEACHING AND THEIR DIDACTIC SIGNIFICANCE IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract. This article examines the application of EdrawMax software, designed for creating graphic organizers, in the educational process and explores its didactic potential. The author provides a

detailed overview of the key features, interface, and functional capabilities of EdrawMax 11.5.0. The article presents practical examples of using this software to complete exercises from 6th and 7th grade native language textbooks, demonstrating the process of creating table-style organizers, circle-spoke diagrams, and list-based graphic organizers. The findings suggest that EdrawMax serves as an effective pedagogical software tool that fosters students' creative abilities, independent learning skills, and digital competencies.

Keywords: *graphic organizer, EdrawMax, pedagogical software tool, visual learning, educational technology, diagram, didactic aid, native language teaching, digital competency, independent learning.*

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni tobora ortib bormoqda. Zamonaviy ta'lim jarayonini raqamli vositalar va innovatsion yondashuvlarsiz tasavvur etish qiyin bo'lib qolgan bir davrda o'qituvchi va o'quvchilar oldiga yangi talablar qo'yilmoqda. Xususan, o'quv materiallarini o'quvchilarga ta'sirchan, ko'rgazmali va qiziqarli tarzda yetkazib berish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Grafik organayzerlar – axborotni ko'rgazmali, tizimli va vizual tarzda ifodalashga xizmat qiluvchi didaktik vositalar bo'lib, ular o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va tizimlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ayniqsa, kompyuter dasturlari yordamida yaratilgan grafik organayzerlar an'anaviy qo'lda chizilgan ko'rgazmali materiallardan o'zining estetik ko'rinishi, qulay tahrir imkoniyatlari va vaqtini tejashi bilan sezilarli darajada ustun turadi.

Grafik organayzerlarni hosil qiluvchi ko'plab dasturiy ta'minotlar orasida EdrawMax dasturining o'ziga xos o'rni bor.


Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy va amaliy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Dastlab EdrawMax dasturiy ta'minotining funksional imkoniyatlari pedagogik va didaktik nuqtai nazardan o'rganildi hamda grafik organayzerlar yaratishdagi samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida 6–7-sinf ona tili darsliklaridagi mashq va topshiriqlar asosida jadval, doira shaklidagi diagramma hamda ro'yxat ko'rinishidagi grafik organayzerlar yaratildi. Shuningdek, grafik organayzerlarning o'quvchilarning ko'rgazmali fikrlashi, mustaqil ishlashi, ijodkorligi va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari kuzatish va pedagogik tahlil usullari asosida baholandi.

Tahlil va natijalar. Grafik organayzerlarni hosil qilish uchun yaratilgan mashhur dasturiy ta'minotlardan biri Kidspiration dasturi bo'lib, ushbu dasturiy ta'minotdan asosan maktabgacha ta'lim, ya'ni bog'cha yoshidagi o'quvchi-bolalardan boshlab to beshinchi sinf o'quvchilariga qadar bo'lgan qatlam vakillari foydalanishlari mumkinligi alohida ta'kidlab o'tilgan edi [7; 170-173].

EdrawMax dasturiy ta'minoti nafaqat ta'limda, shuningdek iqtisodiyotda ham keng qo'llanilishi, o'zgacha bir ko'rinish – dizaynga egaligi bilan alohida e'tiborga molik. Ushbu dasturiy ta'minotdan barcha yoshdagi qatlam vakillari turli maqsadlarda foydalanishlari mumkin. Ushbu dasturiy ta'minot 2D texnik diagrammalash dasturi hisoblanib [8], ta'limga oid bo'lgan, iqtisodiyot hamda muhandislik sohasiga oid bo'lgan maxsus shakllar, rasmlar va chizmalarni yaratishga yordam beradi. Biz ana shu dasturiy ta'minotda yaratilishi mumkin bo'lgan shakl, rasm va chizmalarni inobatga olib, umumiy nom ostida “diagramma” terminining qo'llanganligiga guvoh bo'ldik.

Barchasida kerakli raqamlar, yozuvlar ko'rinishida bo'lgan ma'lumotlarni o'ziga xos jadvallar, shakllar hamda chizmalar – diagrammalar ko'rinishida ko'rgazmali holatda ko'rsatishdan iborat. Ushbu ko'rgazmalilik kompyuterda maxsus dastur orqali hosil qilinishini hisobga olsak, qo'lda ibtidoiy shaklda yaratib olingan ko'rgazmalilikdan ustun taraflari juda ham ko'p ekanligini anglab olish qiyin ish emas.

EdrawMax 11.5.0 dasturiy ta'minoti 2021-yilning noyabr oyida yaratilgan bo'lib, Microsoft Words, macOS hamda Linux operatsion tizimlari uchun alohida moslashtirilgan versiyalariga ega. Shuningdek, ushbu dasturiy ta'minotdan nafaqat offline, balki online holatda ham foydalanish imkoniyatiga egamiz. Dastlab ana shu online shakldagi dasturga havola qilingan link orqali kirib ko'ramiz. Natijada quyidagi oyna hosil bo'ladi.



1-rasm. EdrawMax dasturining bosh oynasi

Yuqorida EdrawMax dasturining asosiy oynasi aks etgan (1-rasmga qarang.). Biz ushbu online mo'ljallangan dastur versiyasidan internet tarmog'idan foydalangan holda kirishimiz mumkin bo'ladi. Agar kompyuterimiz internet tarmog'iga ulanish imkoniyatiga ega bo'lmasa, u holda biz dasturning offline ko'rinishidagi versiyasidan foydalanishimiz mumkin va internet tarmog'idan foydalanmagan holda ish olib borishni inobatga olsak, biz uchun offline versiyasi ancha qulay.

Foydalanuvchilar uchun tavsiya etilgan grafik organayzerlarning ustiga kursorni olib borib sichqonchani chap tugmasini bosib, alohida ishchi maydonga ega bo'lgan hujjat faylini ochib beradi. Shuningdek, siz tanlagan ana shu grafik organayzer "Recent" – "Yaqinda" bo'limida aks etib turadi. Agar "Tavsiya etilgan" nomli bo'limdagi birorta grafik organayzer ustiga kursorni olib borib o'ng tugmasini bosib, "See original position", ya'ni "Asl holatiga qarang" yozuvi ko'rinadi. Ana shuning ustiga bosib, biz tanlagan grafik organayzer qaysi toifaga mansub ekanligini va yana ana shunga o'xshash toifadagi boshqa grafik organayzerlar borligini ko'rsatib beradi. Masalan, "Mind map" – "Aql xaritasi" ustiga kursorni olib borib, sichqonchani o'ng tugmasini bosib, "See original position", ya'ni "Asl holatiga qarang" yozuvining ustiga bosib, ana shu grafik organayzerning "Basic" – "Asosiy" bo'limida turganligini ko'rish mumkin.

Ana endi biz tavsiya etilgan boshqa grafik organayzerlarni ham "Basic" – "Asosiy" bo'limidan boshlab "Education" – "Ta'lim" bo'limigacha bo'lgan oraliqda qidirib, o'zimizga kerakli bo'lgan grafik organayzerni topishimiz mumkin bo'ladi. Masalan, men "Education" – "Ta'lim" bo'limidagi "Graphic organizer" – "Grafik organayzer" bo'limini tanlayman. Ekraning o'ng tomonida ko'plab grafik organayzerlar ularning chizmasi bilan birga aks etadi. Hatto taqdim etilayotgan grafik organayzerlar qaysi toifaga mansub ekanligi haqidagi bandlar ham ko'rsatib o'tiladi. Men "Main idea and detail" toifasiga kiruvchi "Main idea and details 2"(Ushbu grafik organayzer olma mevalari bilan birgalikda aks etgan daraxt shaklida tasvirlangan.) grafik organayzerini tanlayman. Buning uchun kursorni ana shu grafik organayzer ustiga olib borib sichqonchani o'ng tugmasini bosamiz. Natijada "Add it to "Personal templates" ", ya'ni "Uni "Shaxsiy andozalar"ga qo'shish" yozuvi paydo bo'ladi. Ana shu yozuv ustiga

bossak, biz tanlagan grafik organayzer “Personal templates” – “Shaxsiy andozalar” bo‘limidan topishimiz mumkin. Keyin esa ana shu bo‘limga kirib, o‘zimiz tanlagan grafik organayzer ustiga kursorni olib borib, sichqonchani chap tugmasini bossak, biz tanlagan grafik organayzerni o‘z ichiga olgan ishchi maydoni hosil bo‘ladi.

Yangi 6-sinf ona tili darsligining 20-sahifasida *chit, bo‘z, tirinka, kirza etik, dovot, fufaykacha* kabi so‘zlarni izohlari bilan ko‘chirish vazifasi so‘ralgan [3; 20]. Ushbu topshiriq yozma ish sifatida bajarilishi kerak.

Ushbu topshiriqni bajarishda biz dasturiy ta‘minotlar asosida bir nechta grafik organayzerlarni hosil qilib olishni ko‘rsatib o‘tamiz. Dastlab, “jadval” grafik organayzeri vositasida hosil qilib olishni ko‘rib chiqamiz.


E‘tiboringizga quyidagi grafik organayzerni havola qilamiz (2-rasmga qarang.). Ushbu jadval ko‘rinishiga ega bo‘lgan chizmani shartli ravishda 3 qismga bo‘lishimiz mumkin. Birinchi ustunda mashqda berilgan so‘zlar, keyingi ustunda uning izohi, undan so‘ng uchinchi ustunda esa ana shu so‘zga mos keluvchi surat joylashtirilgan.

Berilgan so‘zlar	Izohlari	So‘zlarga mos suratlar
chit	<i>Paxta tolasidan to‘qilgan mato, gazlama</i>	
bo‘z	<i>Xom pishirilgan paxta ipidan qo‘l dastgohida to‘qilgan mato</i>	
tirinka	<i>Ust kiyim uchun ishlatiladigan ip yoki yarim jun gazlama</i>	
kirza etik	<i>Suv o‘tkazmaydigan, pishiq sun‘iy materialdan tayyorlangan oyoq kiyim</i>	
dovot	<i>Qadimgi Sharq mamlakatlarida, jumladan, O‘rta Osiyoda ko‘pincha jezdan quyilgan yoki loydan (Xitoyda chinnidan ham) yasalgan siyohdon</i>	
fufaykacha	<i>Paxta tolasidan to‘qilgan mato, gazlama</i>	

2-rasm. EdrawMax dasturida jadval ko‘rinishida hosil qilib olingan organayzer

Shuningdek, ushbu darslikning 56-sahifasida ta‘na a‘zolari nomi ishtirok etgan iboralardan topib, yozish vazifasi so‘ralgan [3; 56].


Biz ushbu topshiriqni bajarishda ham EdrawMax dasturidan foydalanib, quyidagi grafik organayzerni e‘tiboringizga havola qilamiz (3-rasmga qarang).



3-rasm.


Ushbu holatda tasvirlashimiz natijasida o'quvchilar qiziqishining o'sishi tabiiy hol. Eng avvalo, fikriy faoliyatning turlaridan biri bo'lgan ko'rgazmalilik ushbu grafik organayzerlarda birinchi o'rinda turadi. Bu esa mavzuni tushuntirish jarayonida ko'rgazmali yondashuv tizimidan foydalanishda katta samara beradi [1; 156].

Milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan 7-sinf ona tili darsligining 19-sahifasida "Qahramonlar nega kerak?" mavzusi ostida berilgan matn tarkibida uchrovchi kundalik, qahramon, yulduz, davr kabi so'zlarning izohi berilgan bo'lib, berilgan so'zlarning ma'nolari bilan tanishish va bu so'zlarning matnda qanday ma'no ifodalayotganini aniqlash, ko'chirish vazifasi so'ralgan [2; 19]. Biz ushbu so'zlarni daftarimizga oddiy holatda emas, balki kompyuter yordamida EdrawMax dasturidan foydalangan holatda grafik organayzer tarzida ifodalasak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun "Basic diagram" – "Asosiy diagramma" bo'limidan "Lists" – "Ro'yxatlar" qismini tanlab olamiz. Natijada, quyidagi grafik organayzerni e'tiboringizga havola qilamiz (4-rasmga qarang.).



4-rasm. So'zlar va ularning izohlarini EdrawMax dasturida qayd etilishi

Milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan 7-sinf ona tili darsligining 5-sahifasida "Ijtimoiy tarmoqlar" deb nomlangan mavzu berilgan [2; 5]. Mavzuning dastlabki topshirig'ida rasmdagi belgilarga diqqat bilan qarash va savollarga javob berish so'ralgan. Biz ushbu topshiriqni bajarishda ham EdrawMax dasturiy ta'minotidan bemalol foydalanishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. "Basic" menyusidan "Basic diagram" bo'limini tanlaymiz. So'ngra, "Circle-spoke diagram" – "Doira shaklidagi diagramma" grafik organayzerini (O'zimizga mos shakllardan birini) tanlaymiz. Natijada, quyidagi grafik organayzerni hosil qilib olamiz (5-rasmga qarang).



5-rasm. “Doira shaklidagi diagramma” grafik organayzeri

Muhokama. Ushbu holatda tasvirlash vazifasi o‘quvchi-talabalarga yuklatilsa, qanday amaliy ahamiyatga molik maqsadlarga erishish mumkin?

1. Har bir talabada ijodkorlik qobiliyatining yana ham zivojlanishiga hissa qo‘shgan bo‘lamiz. Chunki ushbu holatda tasvirlash uchun o‘quvchi-talabalar zimmasida rasmlarni joylash vazifasi ham yuklatiladi. Bu esa, albatta, ozgina bo‘lsa ham, o‘quvchi-talabalarda ijodkorlik qobiliyatining rivojlanishiga turtki vazifasini o‘taydi.

2. Har bir talabaga uy ishi yoki sinf ishi sifatida topshiriq qilib berish natijasida ularda mustaqil ta‘lim olish, mustaqil ta‘lim jarayonida o‘zlarining barcha kompetensiyalari – layoqatlarini to‘liq namoyon eta olish ko‘nikma hamda malakalariga ega bo‘ladilar.

3. O‘quvchi-talabalar EdrawMax dasturiy ta‘minotidan foydalanishlari natijasida ushbu dasturning barcha imkoniyatlaridan to‘liq foydalana olish bilan bor qatorda boshqa grafik organayzerlarni hosil qila oluvchi dasturiy ta‘minotlar bilan ishlay olish ko‘nikma hamda malakalariga ega bo‘ladilar.

Dastur bilan ishlashlari davomida ko‘plab grafik organayzerlar, ularning toifalari haqida to‘liq va batafsil tushunchaga ega bo‘ladilar. Shu tariqa ko‘rgazmalilikning bir necha turlarini hosil qila oladilar.

Ushbu dastur yordamida hosil qilib olingan grafik organayzerni siz bimalol printerdan qog‘ozga chop etib, foydalanishingiz mumkin.

Ushbu dasturlar yordamida hosil qilib olingan grafik organayzerlar tayyor didaktik vosita vazifasini ham bajarishi mumkin. “Yangi texnologiya atamalarida bilimlarni chuqurlashtirish didaktik vosita sifatida imkon boricha kam vaqtni sarflab, berilgan mashq turidan ko‘p axborot chiqarish uslublariga o‘rgatish ko‘rsatiladi [4; 101].”

Ushbu dasturlarni biz umumiy nom ostida “pedagogik dasturiy vositalar”[5; 34] deya nomlashimiz mumkin bo‘ladi. “Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita hisoblanadi[5; 36].”

Boshqa dasturiy ta‘minotlardan grafik organayzerlar va nisbatan murakkabroq ko‘ringan chizmalarni hosil qila olishi hamda ularning xilma-xil ko‘plab turlari – shablonlarini taklif eta olishi jihatidan ustunlikka ega.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

EdrawMax 11.5.0 dasturiy ta‘minoti ona tili ta‘limida grafik organayzerlar yaratishning samarali vositasi hisoblanadi. Dastur turli yoshdagi o‘quvchi-talabalar uchun moslashuvchan bo‘lib, jadval, doira shaklidagi diagramma, ro‘yxat va boshqa ko‘plab grafik organayzer turlarini yaratish imkonini beradi.

Ushbu dasturdan foydalanish o'quvchi-talabalarda ijodkorlik, mustaqil ta'lim olish va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, EdrawMax yordamida yaratilgan grafik organayzerlar tayyor didaktik vosita vazifasini ham bajarishi mumkin. O'qituvchilarga EdrawMax dasturini ona tili darslarida so'z izohi, ibora va tushunchalarni grafik tarzda ifodalash, lug'at boyligini kengaytirish kabi topshiriqlar uchun qo'llash tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva O'. Pedagogik texnologiya: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2015. – 162 b.
2. Azimova I., Mavlonova K va boshq. Ona tili: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 224 b.
3. Azimova I., Mavlonova K. va boshq. Ona tili: 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 224 b.
4. Mavlonova R., Voxidova N., Raxmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – 464 b. –B. 101.
5. Muhamedova S. X., Abdullayeva M. D. va boshq. O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Excellent poligraphy, 2020. – 264 b.
6. Nabijanov Y. Kidspiration – grafik organayzerlarni hosil qiluvchi dasturiy ta'minot. “Филологиянинг долзарб масалалари” мавзусидаги халқаро илмий амалий конференция материаллари. – Илмий нашр. № 2. – Фарғона: ФарДУ, 2022. –B. 170-173.
7. <https://www.google.com/search?q=about+wondershare+edraw+max+software&oq=&aqs=chrome.1.35i39i362l6j46i39i362j35i39i362.7002843j0j7&sourceid=chrome&ie=UTF-8>
8. Xabibillayev N. IZOFALI BIRIKMALARNING TARKIBGA AJRATILISHI BORASIDAGI QARASHLAR VA ULARNING AYRIMLARI TAHLILI (2-QISM) //Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения. – 2024. – Т. 3. – №. 9. – С. 18-20.
9. Xabibillayev N. Mumtoz Adabiyotni Targ'ib Etishda Adabiy Moslashtirishning Ahamiyati (—Lison Ut-Tayrli Ning Moslashtirilgan Matni Misolida) //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – Т. 16. – С. 65-71.
10. Habibullayev N. N. O. G. L. Qozoq Va O'zbek Tilidagi Modal So'Zlar Chog'Ishtirmasi //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 27-33.
11. Habibullayev N. N. O. G. L., QOZOQ V. A. O. Z. T. M. SO'ZLAR CHOQ'ISHTIRMASI. – 2023.
12. Xabibillayev N. HOZIRGI O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA RAVISH MASALASI (1-qism) //Молодые ученые. – 2024. – Т. 2. – №. 22. – С. 17-22.